



2019 yil 25 yanvar holatiga ko'ra

Viza berilishining rad etilishi/apellyatsiya berish jarayoni

Viza talabnomasiga rad javobi berilganda, arizachiga uni asoslovchi sabablar ma'lum qilinadi. Viza bo'limining rad javobida bunga asos bo'lgan har bir sabab haqida ma'lumot beriladi.

Apellyatsiya jarayoni uchun sayyohlik byurosi yoki boshqa pullik xizmat ko'rsatuvchilarga murojaat qilish shart emas!

Agar Siz rad javobi sabablarini qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlar orqali bartaraf etmoqchi bo'lsangiz, rad javobiga qarshi yozma apellyatsiya berishingiz va unda viza talabnomangiz qayta ko'rib chiqilishini so'rashingiz mumkin.

Apellyatsiya xatlarini ko'rib chiqish jarayoni 3 oygacha, ba'zi xollarda undan ham uzoqroq davom etishi mumkinligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Shuning uchun ba'zan apellyatsiya xati yozmay, viza olish uchun qaytadan yangi ariza topshirish maqsadga muvofiqdir.

Shengen vizasi bo'yicha apellyatsiya berish muddati rad javobi olingan kundan boshlab 1 oyni tashkil etadi. Apellyatsiya arizasi va apellyatsiya jarayonida qo'shimcha tarzda so'ralgan hujjatlar nemis tilida, yozma ravishda pochta orqali juborilishi yoki bevosita elchixonaga topshirilishi lozim. Arizachining shaxsiy imzosisiz yoki arizachining ishonchnomasisiz taqdim etilgan apellyatsiya xatlari ko'rib chiqilmaydi. Shuningdek elektron pochta orqali ham apellyatsiya berish imkoniyati mavjud. Bunda arizachi shaxsan imzolagan apellyatsiya xati skanerdan o'tkazilib, elchixonaga elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

Apellyatsiya xati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Arizachining ismi sharifi, tug'ilgan sanasi, pasport raqami, to'liq pochta manzili
- Rad javobi berilgan qaror sanasi va elchixonaga ish raqami
- Arizachi rad javobini nima uchun asossiz deb hisoblashining batafsil ta'rifi, Germaniyaga rejalashtirilgan safardan maqsad va arizachi uchun uning amalga oshirilishi qaysi sabablarga ko'ra muhimligining ifodasi
- Arizachining ko'rsatgan sabablarini tasdiqlovchi va talabnoma bilan avval taqdim etilmagan qo'shimcha hujjatlar
- Arizachining shaxsiy imzosi
- Apellyatsiya arizachi tomonidan berilmasa, unda arizachining shaxsan imzolagan ishonch xati

O'rnatildan tartibda va muddatda yuborilgan apellyatsiya arizasi elchixonaga kelgandan so'ng, viza so'rovnomasi qaytadan sinchiklab ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya arizasini ko'rib chiqish jarayonida taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va apellyatsiya arizasidagi asoslar inobatga olinadi. So'ralgan vizani berish imkoniyati mavjud bo'lsa, arizachi viza berish maqsadida elchixonaga chaqiriladi. Aks holda arizachi rad javobi sabablari izohlangan inkor xatini (rad etish qarori) oladi.